

“O'SMIRLIK DAVRIDA XULQIY OG'ISHGANLIK IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”

*Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi Dotsent v.b,
Psixologiya fanlari nomzodi
Usmanov Esanbay Shirmatovich*

Annotatsiya: *Maqolada o'smir yoshi o'quvchilarining psixologik xususiyatlari xususiyatlari, o'smir xulq-atvori shakllanishining ijtimoiy-psixologik muammolari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *O'smirlik, destruktiv, g'oya, genez, muloqot, mehnat faoliyat, do'stlik, diniy, madaniy, ijtimoiy, ma'naviy, affect.*

O'zbekiston Respublikasining barqarorligiga, aniqrog'i uning ijtimoiy, ma'naviy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan destruktiv diniy, madaniy, ekstremistik va terroristik oqimlar, guruhlar faoliyatini nazariy-amaliy tahlil etib, destruktiv guruh, g'oya tushunchalarining genezisi, mohiyat va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta'rif berish, tasniflash, yoshlarning ushbu g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish hozirgi kunda psixologiya, pedagogika va umuman barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan muhim vazifalardandir.

Mamlakatimizda, yoshlar tarbiyasi masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Biz uchun,-deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, - o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu-farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasbhunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir. Ayniqsa, dunyoda diniy ekstremizm, terrorism, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas”.

O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muamolar xaqida kattalar bilan bo'lishishga katta extiyoj sezadi, lekin buni xech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomila – munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyasida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'smirlik davriga kimningdir hatti –xarakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning hatti–xarakatlarini imitatsiya taqlid qiladilar. Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruxida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi.

O‘smir o‘z guruxiga bog‘liq va qaram bo‘lgani holda shu guruxning umumiy fikriga qo‘shilishga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo‘ladi. Gurux ko‘pincha o‘smirda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustaxkamlaydi. O‘smir yoshdagi bola uchun do‘st tanlash juda katta axamiyatga ega. O‘smirlik davrida do‘st juda qadrli hisoblanadi. Do‘stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo‘lishga extiyoj sezadilar. Bu extiyoj o‘smir do‘stlarning so‘rashishi va ko‘rishishlarida (qo‘l berib, quchag‘lab ko‘rishish) birga o‘tirish va birga yurishga xarakat qilishlarida ko‘rinadi. Ko‘pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o‘smirlarning shaxs bo‘lib shakllanishdagi, birgalikdagi xarakatlarini izi inson qalbida va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Yoshlarda xulq og‘ishini oldini oluvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o‘rganar ekanmiz, hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipoteza(faraz)larni, bu sohaga doir nazariy ma‘lumotlarni amaliy faoliyatda qo‘llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi. Yoshlar o‘rtasida xulq og‘ishini barvaqt oldini olish to‘g‘risida nafaqat profilaktika idoralari, Ichki ishlar va Sog‘liqni saqlash, ta‘lim, sport va turizm, madaniyat vazirliklari tomonidan rioya qilingan ijtimoiy nazorat va cheklovlar pozitsiyasidan kelib chiqib qarash noo‘rin.

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnomamizdan o‘rin olgan navbatdagi “Sizningcha qanday xarakterdagi yoshlar xulq og‘ishiga moyil bo‘ladi?” savolga repondentlarimizning javoblari quyidagicha tus oldi, xulqi og‘ishdan yoshlarning bergan javoblariga qaraganda xulq og‘ishiga ko‘proq “ehtiyojlari vaqtida qondirilmagan, sabrsiz xislatlarga ega shaxslar” moyil bo‘lsa (43.2 %), uyushgan yoshlarning aksariyati 36.4 % i “o‘ziga past baho beradigan, imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaydigan shaxslar”da xulq buzilishi kelib chiqish hollari ko‘proq kuzatiladi, degan mulohazani tanlashgan. Xarakter xususiyatlaridan esa, xulqi og‘ishgan yoshlarda “serhahl, agressiv” javobiga berilgan ko‘rsatkichlar 40 % ni, uyushgan yoshlarda esa, 27.3 % ni tashkil etmoqda.

Olingan natijalardan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, xulqi og‘ishgan yoshlarning ko‘pchiligida xulq buzilishlarini kelib chiqishiga, ijtimoiy me‘yorlarni buzishida o‘z ehtiyojlarnining ma‘lum miqdorda qondirilmaganligini, shuningdek, “qondirilmagan ehtiyojlarini boshqa vositalardan foydalangan holda qondirishga urinishlari” ham sabab bo‘ladi, degan xulosa keladi. Uyushgan yoshlarning bu boradagi bergan javoblariga ko‘ra esa, “o‘z imkoniyatlarini past baholagan va o‘ziga ishonmagan shaxslar”da maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda ichki kuch yetishmasligi, ikkilanish kabi holatlarning ko‘p takrorlanishi oqibatida xulq buzilishi hollari kuzatilishi ehtimoli oshadi. Olingan natijalarga asoslanib esa, xulq buzilishini oldini olishda shaxsdagi psixologik faktorlarni ham inobatga olish, korreksiya ishlarni takomillashtirish zarur, degan tavsiyalarni ishlab chiqish o‘rinlidir.

Natijani jamiyatning diniy, madaniy, ijtimoiy, ma‘naviy sohalarida namoyon bo‘layotgan ekspansiya holatlarida ham kuzatish mumkin. Ayni holatlarning o‘z navbatida fojiali xarakterga ega bo‘lgan, quyidagi oqibatlarga olib kelishi ehtimoli bor:

- yoshlar ijtimoiy aloqalar doirasining torayishi;
- qadriyatlar mazmunining o'zgarishi;
- yoshlarning faqat bugungi kun uchun yashab, istiqbolni o'ylamasligi;
- «Men» siymosining deformatsiyalashuvi;
- psixologik tushkunlikning yuzaga kelishi (ichki beqarorlik, ichki ziddiyat, ijtimoiy qo'rquv, salbiy xarakter xislatlarining aksentuatsiyalashuvi);
- o'z o'rnini oila, ish, o'quv jamoasidan o'zga joylardan topishga intilish.

Bizningcha, an'anadagi takrorlanuvchi, avloddan-avlodga o'tadigan xatti-harakatlar tizimi m'naviy tasavvurlarning shakllanishidagi takrorlanish jarayonida hamda shaxsning asosiy faoliyat ehtiyojini qondirishda namoyon bo'ladi. Muloqot — shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, lining yordnmidada odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga klirishndilnr, o'zaro axborot alm ashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkflzadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy lurmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Qadriyatga nisbatan yo'naltirishning shakllanishi ehtiyoj hamda faoliyatga moslashish orqali faollashadi.

Ma'naviyat to'g'risidagi mulohaza yuritiladigan odamlarning xatti-harakatlariga e'tibor beriladi. Xuddi shu boisdan ma'naviyatning mohiyati xatti-harakatlarda to'la aks etadi. Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, oila, mahalla va ta'lim jarayonining talablari darajasi bilan u erishgan psixik kamolat o'rtasidagi ziddiyatdan iborat bo'lib, ushbu qarama-qarshiliklar uni hulq atvor tasavvurlarining tezkor o'sishi orqali bartiraf qilinadi. O'smirlik davrida xulqatvor xususiyatlarini shakllanish xususiyatlarida asosan muloqot jarayonining o'rni xam beqiyosdir. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Yoki: muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir.

Ko'pchilik psixologlar inson shaxs sifatida tug'ilmaydi, balki shakllanadi, deb hisoblaydilar. Lekin hozirgi zamonaviy psixologiyada olimlar insonning shakllanishi va rivojlanishi nazariyasi borasida yakdil bir fikrga kelmaganlar. Misol uchun biogenetik yondashuv namoyandalari (S.Xoll, Z.Freyd va boshqalar) inson rivojida organizmning shakllanishiga oid biologik jarayonlar asosiy ahamiyat kasb etadi, deb hisoblasalar,

sotsiogenetik nazariya tarafdorlari (E.Torndayk, B.Skinner va boshqalar) ijtimoiy tuzum, ijtimoiylashuv jarayonlari, shaxslararo munosabatlarni birinchi o'ringa qo'yadilar. Psixogenetik nuqtai nazarni yoqlovchi olimlar (J.Piaje, J.Kelli va boshqalar) esa biologik va ijtimoiy omillarni inkor etmagan holda, shaxsdagi psixik holat va xususiyatlarga urg'u beradilar. Albatta, o'zini o'zi namoyon qila olmagan va frustratsiya holatida bo'lgan barcha odam ham destruktiv harakatlarni amalga oshiravermaydi. Bunda biologik omillar bilan bir qatorda turli ijtimoiy omillar, tarbiya va muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni, insonning turli destruktiv, salbiy psixologik-manipulyatsion ta'sirlarga tushish xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Demak, o'smirlikning asosiy neoplazmasi ijtimoiy ong, ichkariga o'tgan o'z-o'zini anglashdir. Fikrlashning rivojlanishi nafaqat shaxsiyatdagi ichki o'zgarishlar bilan cheklanib qolmaydi, buning natijasida boshqa odamlarni chuqurroq tushunish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, o'smirlik o'tish davri bo'lgani uchun nafaqat o'smirlarning o'zlari, balki ularning atrofidagi kattalar orasida ham ijtimoiy munosabatlarga kirishi muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Juda qisqa vaqt ichida, taxminan 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha, odam bolalikdan kattalarga aylanadi. O'smirlik davridagi qiyinchiliklar muqarrar. Ammo o'smirlarning atrofidagi odamlarning tushunish, etuk shaxsni qabul qilish, o'z vaqtida yordam va yordam ko'rsatish, to'g'ri va uyg'un munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. . - T, 2017.-1036et.*
2. *E. G'oziyev. Muomalapsixologiyasi. -T., 2001 23-bet.*
3. *Abduraximova Mohigul Ravshanjonqizi and Muminov Sidiqjon Mirsobirovich, "Tilshunoslikda verbal va noverbal muloqot", RAE, vol. 1, no. 2, pp. 429-432, May 2022.*
4. *Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6).*
5. *Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).*
6. *Kamolova, S. (2022). Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyat xususiyatlarini shakllantirishning psixologik asoslari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(4).*